

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-6/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, d.b.n., prof.
Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.

Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№6/3 (115), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 391 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA
TARIX FANLARI

Abdrimov Z.E. Xorazmshoh-ma'muniylar davrida Abu-Rayxon Beruniyning ilmiy faoliyati	7
Abduqodirov J. Bugungi kun Misr ijtimoiy hayotida Tuluniylar davri islohotlarining aks etishi	10
Abduraimov D.S. Ustrushona o'lkasining transmintaqaviy madaniy a'loqalarda tutgan o'rni	12
Abduvohidov D.N. Farg'ona vodiysining xristian diniy me'morchiligi	15
Abramatov T.I., Qurbonnazarov A.Sh. O'zbekiston Respublikasida diniy bag'rikenglikning huquqiy asoslari yaratilishi	18
Akbarov R.X. Turkistonda Rossiya Davlat dumasiga saylovlarning o'tkazilishi	20
Allaberganov O.A. 1945-1950 yillarda O'zbekiston SSR qishloq aholisining ijtimoiy hayoti, muammo va ziddiyatlar	25
Atajanov M.I. Some comments on the economic factors of urban development culture in the Lower Amudarya area	29
Axmedbekova M. Boburiylar davrida me'morchilik va xaykaltaroshlikning rivojlanishi	32
Begaliyev J.R. Mualliflik huquqi va uning O'zbekistonda shakllanish tarixi	35
Bobokhanov K.Sh. Some comments on the results of archaeological research in the bronze age settlements in the cultural and economic regions adjacent to Uzbekistan	39
Djurakulova D.M. Markaziy Osiyo qadimgi tosh davri madaniyatlarining vujudga kelishi muammolari	43
Egamov N.N. Mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryoda kutubxonachilik faoliyati	47
Fozilova S.N. Koreyslarda jamoa institutlarining shakllanishi	50
Haydarov S.M. Sovet boshqaruv tizimini mahalliy savdoni nazoratga olish borasidagi islohatlari	53
Iskandarov Sh.N. Balx turonliklarning qadimiy vatani	55
Jumaeva N.A. Quyi Zarafshon vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	58
Klichev O.A. Buxoro amirzodalarning Rossiya Imperiyasidagi ta'limi	62
Ma'rufov Sh.K. Sirdaro viloyatining qadimgi va o'rta asrlardagi tarixiy geografiyasining yozma va arxeologik manbalar asosidagi tahlili	66
Matqurbanov F.R. Xorazm vohasi neolit davri nodir yodgorligining zamonaviy texnologiyalar yordamida tarixiy ko'rinishi	68
Meylieva G.M. Political PR in the system of communicative influence of an election campaign	76
Normo'minov A. O'zbekistonlik paraolimpiyachilarning xalqaro musobaqalarda erishgan natijalari	79
Nurullayeva K.X. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarining ba'zi masalalari	81
Oromov Sh. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi madaniy hamkorlikning yangi bosqichi	84
Ortikova D.O. Islomning ayolga munosabatida bag'rikenglik masalalari	86
Qodirov M.M. Qo'qon shahar toponimikasidagi o'zgarishlarning arxiv hujjatlarida yoritilishi	90
Rasulov G.P. O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlarning rivojlanishi	92
Raximov A.E. Qarshi cho'lida sun'iy vohaning yaratilish tarixi	95
Sattorov N.A. XX asrning 20-40 yillarida O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishiga oid milliy avtohtonizm nazariyasining shakllanishi	97
Sobirov Q., Abdirimov R. Xorazm vohasida ishlab chiqarish xo'jaligi munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishi bosqichlariga doir mulohazalar	101
Sultanov Sh.E. Qadimgi davrda xalqaro aloqalar rivojida pochta xizmatining tutgan o'rni	103
Tangirov Sh. Rossiya imperiyasining ma'muriy-hududiy siyosatida Kattaqo'rg'on shahri	107
Taspolatova G.Ye. Amudaryo ekspeditsiyasi materiallarida qoraqalpoq xalqi tarixining aks ettirilishi	111
To'xtasinov D. Uchtepa Buluqmozor majmuasi Uchtepa-2 arxeologik yodgorligining otashparastlik e'tiqodi bilan bog'liq altar – o'choqlari	114
To'laganova S.N. Milliy-ma'naviy qadriyatlar va muqaddas ziyoratgohlar	120
Tojiyev B.T. Charliz stoddart va Kapitan Konollining Buxoroi Sharifdagi halokatli taqdiri	124
To'ychiyeva D.I. Zomin tumani tarixiga oid ayrim mulohazalar	127

3. Дала этнографик маълумотлари, ахборотчи Аҳмад Жумаев, 2012 йил.
4. Дала этнографик маълумотлари, ахборотчи Раҳмон Жўраев, 2003 йил
5. Дала этнографик маълумотлари, 1997 йил. Коракул тумани.
6. Дала этнографик маълумотлари, 1998 йил Ромитан тумани.
7. Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. -Т., 1994. -Б. 102.
8. Шаниязов К.Ш. Узбеки - карлуки. -Т., 1964. -Б. 169.
9. Рожкова М.К. Экономическая политика царского правительства на Среднем Востоке во второй четверти XIX века и русская буржуазия. - М. Л. 1949. -С. 41.

UO'K:390.2:327.82(470+575) "1867-1917"(043.3)

BUXORO AMIRZODALARNING ROSSIYA IMPERIYASIDAGI TA'LIMI

O.A.Klichev, t.f.d. (DSc), Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Аннотасија. *Amir Muzaffar va Amir Abdulahad zamonida taxt vorislarini tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarda o'zgarishlar yuz beradi. Bu davrda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo mintaqasida muqim joylashuvi unga xonlik va amirlikda sodir bo'layotgan voqealarga imkon qadar ishtirok etishni ta'minladi. Mazkur maqolada mang'it xonadoni vakillari orasida taxt vorisligiga nomzodlarning ta'lim olishi uchun Sankt-Peterburgga yuborilish sabablari, zarur ehtiyoj va bundan ko'zlangan maqsad tahlil etiladi.*

Калит со'злар: *Pajesk korpusi, amir, voris, taxt, ta'lim, Nikolayev kadet korpusi, arifmetika, Sankt-Peterburg, uch yillik dastur, fortifikatsiya*

Аннотация. *Во времена Амира Музаффар и Амира Абдулахада произошли изменения в процессах, связанных с подготовкой наследников престола. В этот период постоянное расположение Российской империи в Среднеазиатском регионе позволяло ей максимально участвовать в событиях, происходящих в ханстве и эмирате. В данной статье анализируются причины, необходимые потребности и цель отправки кандидатов на престол из представителей рода Мангитов в Санкт-Петербург для обучения*

Ключевые слова: *Паеский корпус, эмир, преемник, престол, образование, Николаевский кадетский корпус, арифметика, Петербург, трехлетняя программа, фортификация.*

Abstract. *During the times of Amir Muzaffar and Amir Abdulahad, changes occurred in the processes associated with the preparation of heirs to the throne. And during this period, the permanent location of the Russian Empire in the Central Asian region allowed it to participate as much as possible in the events taking place in the Khanate and the Emirate. This state analyzes the reasons, the necessary identity and the purpose of sending candidates to the throne from representatives of the Mangit family in St. Petersburg for training*

Key words: *Pajesk corps, emir, successor, throne, education, Nikolayev cadet corps, arithmetic, St. Petersburg, three-year program, fortification*

Кирish. *Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi diplomatik muloqot XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yangi murakkab bosqichga ko'tariladi. Mang'itlar xonadoni va Romanovlar sulolasi o'rtasidagi bevosita tanishuv va ayniqsa mang'it amirzodalarining Sankt-Peterburgda olgan ta'limi kam tadqiq etilayotgan masalalardan biridir. Bu ilmiy holat taxt vorisi Sayyid Mir Olimning 1893-1896-yillar davomida Nikolayev kadet korpusidagi ta'lim davrini maxsus tadqiq etish masalasini ko'ndalang qilib qo'yadi. Zero, Sayyid Mir Olim hayotida ma'lum darajada muhim ahamiyat kasb etgan ushbu uch yillik ta'lim va Rossiya hukmron doiralari muhitida shakllangan tarbiya Buxoro amirligining keyingi siyosiy hayotiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Rossiya imperiyasiga aynan shu narsa kerak edi. Zero, imperiya hukumati Buxoro taxtiga kelgusida Rossiyaga moyil valiahdni o'tkazishdan manfaatdor edi.*

Адиётлар тahlili va metodologiya. *Amir Abdulahad taxt vorisining imperiya poytaxtida o'tgan ta'lim davri tarixiga oid manbalarni o'rganish jarayonida quyidagilar ma'lum bo'ldi. Taxt vorisining Nikolayev kadet korpusidagi ta'limini tashkil etish va ta'lim jarayoniga tegishli idoralararo hujjatlarni O'zbekiston Milliy arxivi hamda Rossiya tashqi siyosat arxividagi arxiv fondlarida, korpusdagi ta'lim jarayonining ayrim muhim jihatlarni keng doira vakillarini xabardor etish*

maqsadida chop etilgan davriy nashrlarda, shu bilan birga, masalaga oid shaxsiy kuzatuv va qarashlarni esa kundalik, xotiralarda uchratish mumkin. Bu esa masalani kompleks holda o'rganish imkonini beradi. Mazkur izlanish ham o'z oldiga shuni maqsad qilib qo'ygan. Zero bir necha tur va mazmunga ega manbalar vositasida muayyan masalani, bizning holatimizda amir vorisining kadet korpusidagi ta'lim davri tarixini o'rganish orqali tarixiy voqealar tizimini bir necha rakurslarda tadqiq etish imkoni yaratiladi.

Natija va muhokamalar. Mang'it sulolasi vakillarining Rossiya imperatori xonadoni a'zolari bilan bevosita tanishish jarayoni XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran an'anaga aylana boshladi. Sulolalar o'rtasidagi dastlabki tanishuv elchilik almashinuvi vositasida olib borildi. Imperiya hududiga Amir Muzaffarning ishonchli vakili sifatida otasining imperator nomiga 1869-yilgi maktubini topshirgan ilk amirzoda Sayyid Mir Abdulfattoh bo'lgan. Bu elchilik ikkala mamlakat diplomatik almashinuvi tarixida alohida ahamiyatlidir[1]. Zero, imperiyaning O'rta Osiyo hududini o'z ta'sir doirasiga kiritishga qaratilgan siyosati hali bardavom edi. Shunday vaziyatda Amir Muzaffar Sankt-Peterburgga o'zining suyuqli farzandini yuborgani imperiya ma'murlarining e'tiboridan chetda qolmagan edi. Tashrif natijasida, ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy masalalar hal etilgan. Sayyid Mir Abdulfattoh elchilik aloqalarida amirning "*ishonchli vakili*" ramzi edi.

Amir Muzaffar zamonida, ya'ni 1876-yil Sayyid Mir Najmiddin va Sayyid Mir Mansur[2], 1883-yil Sayyid Mir Abdulahad kabi amirzodalar Sankt-Peterburgga tashrif buyurishdi[3]. Ular orasida faqat Sayyid Mir Abdulahad 1893-yilda bevosita Buxoro amiri sifatida Aleksandr III bilan uchrashishga muvassar bo'lgan. Tashrif davomida unga taxt vorisi-to'rajon Sayyid Mir Olim hamrohlik qilgan. Amir Abdulahadning ushbu safari doirasida Sayyid Mir Olim Nikolayev kadet korpusida tahsil olish uchun qoldirilgan.

Sayyid Mir Olimning Nikolayev kadet korpusida ta'lim olishi uchun qaysi omillar sabab bo'lganligi, ta'lim jarayonini bir guruh manbalarga tayangan holda o'rganish ushbu izlanishimizning o'zagini tashkil etadi.

Buxoro amirlaridan birinchi bo'lib Abdulahad shaxsan, Rossiya imperatori bilan uchrashish amaliyotini boshlab bergan. Uning 1893-yilgi ilk safarining tashkil etilishi ham shu maqsadni amalga oshirishga qaratiladi. Amir tashrif natijasida Sayyid Mir Olimni imperator tomonidan Buxoro amirining vorisi sifatida tan olinishiga, shuningdek, faqat yuqori amaldor va ayyonlarninggina farzandlari ta'lim olish huquqiga ega Nikolayev kadet korpusida o'qishini ta'minlashga erishdi. Imperiya hukumati esa Sayyid Mir Olimni Buxoro amirligining vorisi deb e'tirof etish orqali amirlik hukumati doirasida o'z nufuz va ta'sirini yanada mustahkamladi.

Shu o'rinda Abdulahadning taxt vorisini imperiya ta'lim tizimidan xabardor qilishdan ko'zlagan maqsadi xususida o'z mulohazalarimizni bildirsak. Birinchidan, mang'it amirlari xonadoni vakillaridan amir Muzaffar o'z farzandi Sayyid Mir Mansurni Sankt-Peterburgga ta'lim olish uchun yuborgan. Chunki amirzoda rus harbiy ta'limini o'zlashtirishi va amirlik siyosiy hayotiga kirib borishi, shuningdek, imperiya va amirlik manfaatlarini tahlil eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur edi. Ammo, ulardan faqat bir qismi amalga oshdi. Sayyid Mir Mansur Pajesk korpusida ta'lim olib, uchinchi dragun Sumskiy polki karneti, porudchik hamda shtab-rotmistr unvoniga ega bo'ldi, xolos.

Mazkur amaliyotni Abdulahad davom ettirdi hamda Sayyid Mir Olimni Nikolayev kadet korpusida ta'lim olishini ta'minladi. Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxividagi hujjatlarda Abdulahad imperiya markazidagi ta'lim muassasasida dastlab Sayyid Mir Olimni emas, balki Sayyid Mir Abdulloni yuborish niyatida ekanligi xususida ma'lumotlar mavjud. Ulardan birida mazkur masala yuzasidan amir imperiya hukumati vakillariga 1888-yilda murojaat qilganligi, ammo Sayyid Mir Abdulloning vafoti tufayli nomzod sifatida Sayyid Mir Olimni tanlash ehtiyoji yuzaga kelganligi qayd etiladi[4]. Demak, amirzoda Sayyid Mir Olimning nomzodi besh yil oldin amirlik hukumati vakillari orasida munosib deb topilgan. Faqat imperiya hukumati buni ma'qullashi darkor edi.

Bugungi kunga kelib, ilmiy jamoatchilik, tarixchilar, xususan, gid-ekskursavodlar orasida Sayyid Mir Olimning Sankt-Peterburgdagi ta'limi xususida umumiy xarakterdagi ma'lumotlar mavjud. Ularning ayrimlari so'nggi mang'it hukmdorining imperiya markazida olgan ta'limi to'g'risida "afsonabop" qarashlarga ham ega ekanligi sabab mazkur maqolaning ikkinchi qismini

arxiv manbalariga asoslanib tadqiq etishni, mavhum bo'lib turgan jihatlarga oydinlik kiritishni o'z oldimizga maqsad qildik.

Sayyid Mir Olim kun davomida olti soat kadet korpusida o'tiladigan umumfanlar bo'yicha o'z bilimni oshirgan, bir yarim soat esa amaliy fransuz tili bilan shug'ullangan. Shu o'rinda, kadet korpusidagi yetti yillik ta'lim fanlari To'rajon uchun uch yilga o'zlashtirilishi rejalashtirilgani hamda ayrim fanlarni qisqartirishga to'g'ri kelganini ta'kidlash darkor. Sayyid Mir Olim bu xususda quyidagicha xotirlaydi: *"Tartib-qoida yuzasidan u yer maktablarida yetti yil o'qitilar edi. Binobarin, padari buzrukvorim istagiga ko'ra ta'limotni tezlashtirish maqsadida o'qish muddati uch yil deb qaror qilindi. Bu uch yil orasida yoz oylari maktablar yopilgan kezlari Buxoroga, padarim xizmatiga kelib-ketib turardim"*[5].

Amirzoda o'zlashtirishi belgilangan fanlar jamlanmasi korpusda o'tiladigan fanlar asosida tayyorlangan. Sayyid Mir Olim polkovnik Demin uyida istiqomat qilgan va shu yerda ta'lim olgan. Bunga birinchi sabab sifatida tabiatan barcha masalalarda ilg'or bo'lishga intilish hissi kuchli bo'lgan To'rajon o'zidan 4 yosh kichik bo'lgan bolalar orasida o'zlashtirishda orqaga qolmaslik, ikkinchidan, o'zlashtirish ko'rsatkichi orqaga qolish holati To'rajonga ta'sir etish xavfi edi. U dastlab, kadet korpusidagi bolalardan bilim ko'nikmasi jihatidan orqada bo'lishiga qaramay jismonan kuchliroq edi.

Sayyid Mir Olim uchun maxsus tuzilgan fanlar jamlanmasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular quyidagi fanlardan tarkib topganligini ko'rishimiz mumkin: rus tili, fransuz tili, arifmetika, algebra, geometriya, matematika, fizika, tabiiy tarix, tarix, chizmachilik, huquqiy bilim asoslari.

To'rajonning diniy mansubligidan kelib chiqib, kadetda o'tiladigan cherkov slavyan tili unga o'qitilmagan. Uning o'rniga dastlab rus tilidagi so'zlarning mazmuni va mohiyati o'rgatilgan, so'ngra esa badiiy rus tili va adabiyoti bilan tanishtirilgan. Fransuz tili – amaliy fransuz tilini o'rganishda dastlab elementar grammatika, shu bilan birga XVII asrdagi buyuk fransuz adabiyoti namoyondalari merosi bilan tanishtirishga e'tibor qaratilgan. To'rajonga rus tilini o'rgatishdan maqsad uni imperiya madaniyati bilan tanishtirishdan iborat bo'lgan bo'lsa, uning fransuz tilini bilishi lozimligi ushbu tilning xalqaro munosabatlar tili sifatidagi mavqeyidan kelib chiqqan edi.

Arifmetika fani korpusdagi kabi to'liq o'tilgan, algebra esa umumiy tushuncha va mazmun nuqtayi nazaridan, geometriya fani jism yuzasining elementar holati, sig'im, yuza hamda umumiy masalalar doirasida o'rgatilgan. Fanlarning xususiyatidan kelib chiqib tabiiy tarix yo'nalishi fan sifatida o'tilgan. Unda Buxoro va u bilan chegaradosh davlatlarning flora va faunasiga oid bilimlarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu fan doirasida anatomiya va gigiyena haqidagi tushunchalar ham berib borilgan.

Tarix fani jahon tarixi yo'nalishida o'tilgan. Qadimgi, o'rta asrlar davri qisqartirilgan holda, yangi davr tarixi kengroq o'qitilar edi. Rossiya tarixini o'rganish bilan birga, ma'lum qisqartirishlarga ega sharq mintaqasi tarixidan ham xabardor qilingan. To'g'rirog'i imperiya manfaatlarini ko'zlagan holda, To'rajonga jahon va sharq davlatlari tarixidan ko'ra, Rossiya imperiyasi tarixidan ko'proq bilim berilgan.

Uch yillik ta'lim dasturiga umumiy hamda shariat huquqiga daxldor tushunchalar, Rossiya davlat huquq va qonunlari, statistika va siyosiy iqtisodiy masalalar, chizmachilik (ornamentlarni qalam va bo'yoqlar bilan chizish) kabi fanlar ham kiritilgan edi. Qisqartirilgan fan dasturidagi tabiiy tarix, shariat huquqiga tegishli tushunchalar, chizmachilik fanlari To'rajonning ijtimoiy va diniy kelib chiqishiga qarab moslashtirib tuzilganligini ko'rsatadi. Quyida ushbu fanlarning yillar kesimida taqsimlanganligini ko'rishimiz mumkin:

Birinchi yilda rus tili - yozuv, grammatika namunalari yodlash, fransuz tili, arifmetika, geometriya, tabiiy tarix – (flora va fauna), geografiya (umumiy va Rossiya mintaqasi), tarix (jahon, umumiy va qisqa Rossiya tarixi);

Ikkinchi yili rus tili, fransuz, arifmetika algebra, geometriya, tabiiy fanlar tarix – (fiziologiya va inson anatomiyasi), Rossiya va Osiyo mintaqasi geografiyasi, Rossiya tarixi batafsil, qisqacha Sharq tarixi, chizmachilik;

Uchinchi yilda esa rus va fransuz tillari hamda adabiyotlar bilan tanishuvga yo'naltirilgan algebra geometriya, tabiiy tarix – (gigiyena) Osiyo geografiyasi, Rossiya va Sharq tarixi, qonunshunoslik, statistika siyosiy-iqtisod va chizmachilik[6].

Ta'lim dasturida umumiy fanlar bilan birga sakkiz oylik harbiy ta'limga keng o'rin berilgan.

Uch yillik ta'lim yakunida To'rajon korpus imtihon hay'ati oldida o'zlashtirilgan fanlar yuzasidan sinovlarni topshirgan. Imtihon hay'ati tarkibi harbiy-o'quv muassasalar boshqarmasi boshlig'i infanteriya generali N.A.Moxotin-rais, uning yordamchisi N.I.Yakubovskiy, Nikolayev kadet korpusi direktori general-leytenant Y.A.Drujinin, Harbiy vazirlik Osiyo qism boshlig'i general-leytenant A.P.Protsenko, Tashqi ishlar vazirligi vakili D.K.Sementovskiy, Nikolayev kadet korpusi sinf inspektori I.S. Demin va fan o'qituvchilaridan iborat edi.

Imtihonlar ikki kun uch soatdan davom etgan. Gazeta sahifalarida ushbu voqea masalasiga tegishli ma'lumotlarga ko'ra, *"To'rajonning rus tilini bilish darajasi mazkur fan imtihonida namoyon bo'ldi. Ikki yarim yil oldin birta ham ruscha so'zlarni bilmagan hamda uni alifbodan o'rganishni boshlagan To'rajon qisqa vaqt davom etgan mashg'ulotlar samarasi o'laroq rus tilini a'lo darajada o'rgandi. Nafaqat rus tili fanidan berilgan savollarga, balki rus hamda chet el adabiyoti namunalarini ta'riflash [yuzasidan berilgan savollarga ham] adabiy rus tilida [mukammal] javob bera oldi. Boshqa fanlar qatorida artilleriya, fortifikatsiya, fizika, tabiiy va jahon tarixidan imtihonlarni yaxshi topshirdi. To'rajon taktik masala va rejalar yuzasidan tuzilgan savollarni ham hal eta oldi. Tarix fanidan berilgan savollarga Sharq va Rossiya tarixiga doir muhim ma'lumotlarni taqdim etdi. Imtihon hay'ati a'zolari bir ovozdan imtihon savollariga berilgan javoblar "juda yaxshi" degan xulosaga keldilar[7].*

Imtihon natijasidan so'ng To'rajon Tersk kazak qo'shinlari ofitseri sifatida qo'shin safiga kiritildi. Sayyid Mir Olim o'z xotiralarida kadet korpusida ta'lim olganligini va imtihon topshirganini quyidagicha ta'riflaydi: *"Shunday qilib, men uch yil davomida ta'lim olib, mamlakat tartib qoidalarini biladigan darajada bilim hosil qildim, o'qishlarni tugatib, imtihon topshirdim. Rus davlati ulug'lari meni Buxoro davlati valiahdligiga munosib bo'lganligim uchun Buxoroga qaytarishdi "[8].*

Xulosa. Sayyid Mir Mansur va Sayyid Mir Olim Rossiya imperiyasi harbiy ta'limini olgan va imperiyaga xayrixoh valiahdlardir. Bu hol o'z navbatida zaruriy ehtiyoj ham edi. Ularning biri Pajesk, ikkinchisi Nikolayev kadet korpusida ta'lim olgan. Bu kabi harbiy ta'lim muassasalarida amaldor hamda harbiy xizmat vakillarining farzandlari bilim olishgan. Ta'lim yakuni natijasida bitiruvchilar harbiy va davlat boshqaruvi yo'nalishida faoliyat olib borish imkonini qo'lga kiritganlar.

Amir Muzaffar va Amir Abdulahadlar o'zlarining bo'lg'usi vorislarini zamonaviy, dunyoviy va harbiy ta'lim olishlariga qiziqish bildirganliklari, ham mahalliy, ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirildi. Ikkala amir ham mang'it taxti vorisi har tomonlama mukammal shaxs sifatida voyaga etishi, vaqti kelganda mamlakatni boshqarishda mavjud an'analarga sodiq qolgan holda ilg'or bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini istagan ediyu...

Amirzodalar orasidan bu ikki shaxsning imperiya hududida ta'lim olishi bir tomondan mahalliy amaldorlar orasida bo'lg'usi hukmdor to'g'risida ijtimoiy fikrni shakllantirishdan iborat bo'lgan. Chunki toj-taxtga da'vogarlar o'rtasidagi raqobat barcha davrlarda o'z keskinligini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda – O'zMA), I-1-fond, 34-ro'yxat, 33- yig'majild, 9-10-varaq
2. O'zR MA, I-1-fond, 34-ro'yxat, 328- yig'majild 29-varaq.
3. O'zR MA, I-3- fond, 1-ro'yxat, 20-yig'majild, 66- varaq.
4. Rossiya imperiyasi tashqi siyosat arxivi (keyingi o'rinlarda - RITSA), 147-fond, 485-ro'yxat, 274- yig'majild 35-varaq
5. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi / forsiydan A.Irisov tarjimai. – Toshkent: Fan, 1991. – B.6.
6. RITSA, 147-fond, 485-ro'yxat, 263- yig'majild,54- varaq.
7. Бухарский наследный принц // Переводчик, 1896 год 5 мая №18.
8. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi / forsiydan A.Irisov tarjimai. – Toshkent: Fan, 1991. – B.7.